



TA'LIM SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Rashidxo'jayev Muxriddinxo'ja Muxsinxo'ja o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

"Ommaviy axborot vositalari huquqi" yo'nalishi magistranti

Annotatsiya : Bugungi fan texnika yuksak darajada rivojlanayotgan davrda davlatlarning ta'lif sohasidagi hamkorlik faoliyati kengayib bormoqda. Ta'lif sohasida olib borilayotgan hamkorlik faoliyati xalqaro huquqiy normalarga tayangan holda tartibga solinishini hisobga olsak, ta'lif sohasidagi xalqaro huquqiy normalarning mazmuni va qanday huquqiy oqibatlari mavjud ekanligini yaxshi bilishimiz kerak. Shuningdek, ta'lif sohasidagi hamkorlik faoliyatining milliy va xalqaro jihatlarini huquqiy tahlil qilgan holda, huquqiy asoslarini yoritib berish maqsad qilib olindi.


Kalit sozlar: *ta'lif olish huquqi, xalqaro ta'lif tizimi, xalqaro hamkorlik, ta'lif sohasidagi xalqaro hujjatlar, masofaviy ta'lif, zamonaviy ta'lif tendensiyalari.*

Аннотация : В то время, когда наука и техника развиваются на высоком уровне, расширяется сотрудничество в сфере образования. Учитывая, что сотрудничество в сфере образования регулируется международным правом, нам необходимо хорошо знать содержание и правовые последствия международного права в сфере образования. Он также призван пролить свет на правовую основу для правового анализа национальных и международных аспектов сотрудничества в сфере образования.

Ключевые слова: право на образование, международная система образования, международное сотрудничество, международные документы в области образования, дистанционное обучение, современные образовательные тренды.

ABSTRACT: At a time when science and technology are developing at a high level, cooperation in the field of education is expanding. Given that cooperation in the field of education is regulate by international law, we need to be well aware of the content and legal consequences of international law in the field of education. It also aims to shed light on the legal basis for legal analysis of national and international aspects of cooperation in the field of education.

Keywords: right to education, international education system, international cooperation, international documents in the field of education, distance learning, modern educational trends.






Kirish. Mavzuning dolzarbligi. Davlatalrning ta'limgoh sohasidagi hamkorlik faoliyatini huquqiy jihatdan xalqaro va milliy qonunchilik asoslariga ko'ra tartibga solinadi. Qonunchilik nuqtai nazaridan xalqaro normalar, milliy normalardan ustuvor ahamiyatga ega bo'lasada, har bir davlatda o'zining milliy qonunchillik tizimiga zid bo'lgan xalqaro normani ratifikatsiya qilmaydi. ta'limgoh tizimi, xalqaro hamkorlik va uning huquqiy asoslarini milliy qonunchiligidan doirasida ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasining 41-moddasida ta'limgoh olish huquqi kafolatlangan, Shuningdek "Ta'limgoh to'g'risidagi qonunning" 10-bobi "Ta'limgoh sohasidagi xalqaro hamkorlik" bobining 67-moddasiga ko'ra ta'limgoh tashkilotlari quyidagilar vositasida tegishli xorijiy ta'limgoh tashkilotlari bilam hamkorlik qilishi belgilab qo'yilgan:

- Ta'limgoh muammolari yuzasidan ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish;
- qo'shma fakultetlar, o'quv markazlari va ilmiy laboratoriylar tashkil etish;
- xalqaro darajadagi birligindagi ta'limgoh hamda ilmiy-tadqiqot loyihalari va dasturlarini tayyorlash;
- hamkorlikda fundamental hamda amaliy ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish;
- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiylar va simpoziumlar o'tkazish;
- talabalar, magistrler, doktorantlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlar almashinishini amalga oshirish;
- talabalar, magistrler, doktorantlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlar almashinishini amalga oshirish;
- ikki tomonlama diplomlar (Double Diploma) dasturlarini joriy etish;

Shunindek hamkorlikda kadrlar tayyorlash faoliyatini ham olib borishi mumkin.

Hozirgi kunda Oliy va o'rta maxsus ta'limgoh vazirligi hamda Xitoy Xalq Respublikasining Ta'limgoh Vazirligi o'rtasida 1999 yil 8 noyabrdan belgilangan "Ta'limgoh sohasida hamkorlik" to'g'risidagi shartnoma doirasida Xitoy oliy ta'limgoh muassasalarida O'zbekistonning qator oliy ta'limgoh muassasalaridan 40 ta talaba, fan nomzodlari, va yosh mutaxassislar amaliyot o'tamoqdalar. Xitoy oliy ta'limgoh muassasalarida amaliyot xitoy tili va adabiyoti shuningdek, turli texnik va tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha bilimlarni takomillashtirish maqsadida olib boriladi. O'zbekiston oliy ta'limgoh muassasalari AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, XXR, Malayziya, Hindiston, RF va boshqalar bilan to'g'ridan-to'g'ri muassasalararo shartnomalar asosida hamkorlik olib borishmoqda. Ushbu shartnomalar professor o'qituvchilar va talabalar almashinuviga, ularning turli konferensiya va simpoziumlarda ishtirok etishi, qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy maqolalar chop ettirish va hokazo vazifalarni ko'rib chiqadi.

Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'limgoh muassasalari Evropa Ittifoqining Tempus va Erazmus Mundus nomli ta'limgoh dasturlarida faol ishtirokini alohida ta'kidlash joiz.





Ayni paytda respublikada Evropa Ittifoqining Tempus o'quv dasturining 20ta loyihasi tadbiq etilib, ularda O'zbekistonning 40 ta atrofida oliy ta'lif muassasalari ishtirok etmoqda.

Ta'lif sohasidagi xalqaro tashkilotlar ichida BMT ning UNESCO tashkiloti alohida o'rinn tutadi. 2017-yilda tuzilgan Xalqaro ta'lif olish huquqi kodeksida quyidagi 4ta ta'lif standarti belgilab berilgan:

1. Mavjudligi. Ishlayotgan ta'lif muassasalari va dasturlari mavjud bo'lishi kerak

- a) binolar;
- b) har ikki jins uchun sanitariya inshootlari;
- v) xavfsiz ichimlik suvi;
- d) mamlakat ichida raqobatbardosh ish haqi oladigan o'qituvchilar;
- e) o'quv materiallari

2. Foydalanish imkoniyati. Ta'lif muassasalari hamma uchun ochiq bo'lishi kerak

1. Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik: ta'lif qonun va haqiqatda hamma uchun ochiq bo'lishi kerak;


2. Qulay geografik joylashuvda yoki zamonaviy texnologiya ega bo'lish

3. Qabul qilish imkoniyati. Ta'lif shakli va mazmuni talabalar va ota-onalar uchun maqbul bo'lishi kerak

- a) tegishli, madaniy jihatdan tegishli ta'lif muhitiga mos bo'lishi;
- b) yaxshi sifatga ega bo'lish va boshqa talablar berib o'tilgan .

UNESCO tashkilotining "Ta'limda kamsitishga qarshi" konvensiyasida ta'lif hamkorligini olib borishda davrlarning huquqiy majburiyatları teng bo'lishi va hamkorlik qiluvchi hech bir davlatni huquqi kamsitishiga yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilangan.

So'nggi paytlarda Osiyo davlatlarining rivojlanishida ta'lif hamkorligi va ta'limga kiritilgan investitsiya katta ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan mamlakatimizning Janubiy Koreya respuublikasi, Yaponiya, Xitoy va singapur kabi rivojlangan Osiyo davlatlari bilan ta'lif sohasidagi hamkorliklari natijasida yurtiizda ta'lif sohasida ilmiy tadqiqotlarning samarasini tobora yuksalib bormoqda. Xususan, 2014-yilda tashkil etilgan "INHA" universiteti, 2018-yil 15-oktabrda rasman faoliyatini boshlagan Toshkent shahridagi "Yodju" Texnika instituti, 2019-yil 23-avgust kuni Vazirlar Mahkamasining 714-sonliqaroriga asosan 2020-2021 o'quv yilidan faoliyatini boshlagan Farg'ona shahridagi "Koreya xalqaro universiteti"ni oliy ta'lif tizimidagi xalqaro hamkorlikning muhim natijalari sifatida e'tirof etish joiz. Shuningdek pandemiya davrida ta'lif tizimining izchil davom etishi uchun masofaviy (online) ta'lif shaklida olib borilishi ta'lif to'g'risidagi qonunga o'zgartirish kiritishga sabab bo'ldi. Ushbu davr mobaynida xalqaro hamkorlik doirasida o'tkazilishi rejalashtirilgan ilmiy anjumanlar ham





masofaviy tarzda olib borildi. Bu esa o'z navbatida ta'limdi masofaviy hamkorlikning huquqiy asoslarini joriy etishga sabab bo'ldi.

Yurtimizning Markaziy Osiyo davlatlari bilan ta'lim hamkorligi ham tobora rivojlanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan qo'shni davlatlar bilan do'stona hamkorlik va ta'lim sohasidagi o'zaro shartnomalari ikki tomonlama ilmiy sohada hamkorlik faoliyati kengayib bormoqda.

XULOSA

Yuqorida davlatlarning ta'lim sohasidagi hamkorlik faoliyati va uning huquqiy asoslari haqidagi fikrlarga to'xtalib shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Dunyo hamjamiyatining rivojlanishi ta'lim tizimining rivoji bilan bog'liq ekanligini anglashimiz darkor. Ta'lim rivoji esa hozirgi kunda xalqaro hamkorlik asosida rivojlanadi. Mamlakatimizning ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik faoliyatining tobora kengayib borayotganligi, ta'lim muassasalari bilan ilmiy anjumanlar va ilmiy tadqiqot ishlari xorijiy ta'lim muassasalari bilan birga olib borilayotganligi, ushbu munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishni nazarda tutadi. Yuqorida keltirilgan xalqaro ta'lim kodeksida UNESCO doirasida qabul qilingan konvensiyalar asosida ta'lim tizmini tartibga soluvchi normalar belgilab berilgan. Shuningdek milliy qonunchiligimiz doirasida ta'lim hamkorligini tartibga solish bo'yicha huquqiy normalar takomillashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasining. Adolat-2020. Toshkent. 41-m
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-sun.67-m
3. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi "Ta'lim sohasida hamkorlik" to'g'risidagi shartnoma 08.11.1998.
4. student.uzbekistan.org.ua
5. This list is only indicative and non-exhaustive but we must understand that those aspects are considered by the Committee on ESCR as part of the core content of the right to education.
6. UNESCO Convention against Discrimination in Education. Committee on ESCR, General Comment 13, par. 32 – 34.1960.
7. Махмудов С. ZAMONAVIY TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA KOREYA-O'ZBEKISTON HAMKORLIGINING ISTIQBOLLARI //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – Т. 3. – №. 10.
8. Abdullayeva S. R. Pandemiya davrida masofaviy o'qitish jarayonining o'ziga xos afzalliklari //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 303-306.

